
RASMIY MUNOSABAT

Viloyat hokimligi tomonidan Kun.uz nashrida e'lon qilingan, "Toshkentdagi "Azia invest" mojarosi Farg'onada takrorlanyapti. Fuqarolar hukumatdan najot kutmoqda" nomli material yuzasidan quyidagilar ma'lum qilinadi:

Bag'dod tumanidagi "Muruvvat" MFY hududida barpo etilgan shaharchada "SADDINSO-XABIBULLO" xususiy korxonasi tomonidan qurilgan ko'p qavatli uylarda sotilgan xonadonlar quruvchining bankdagi krediti va boshqa qarzlari uchun xatlangani bilan bog'liq holatni o'rganish yuzasidan viloyat hokimligi tomonidan viloyat prokuraturasi bilan birga tegishli mutasaddi idoralar vakillarini jalb qilgan holda ishchi guruh tuzildi.

Ishchi guruh mavjud holatni qisqa muddatda har tomonlama o'rgangan holda xonadon sotib olgan fuqarolarning muammosini o'rganish va ularni bartaraf etishga qaratilgan takliflar tayyorlaydi, ularning huquq va manfaatlari ta'minlanishi yo'lida kerakli huquqiy va tashkiliy choralarni ko'radi.

Materialda qayd etilganidek, "SADDINSO-XABIBULLO" xususiy korxonasi Respublikamizning boshqa hududlarida ham bir qancha binolar qurgan va mazkur qurilish binolari bilan bog'liq katta miqdorda qarzdorlik vujudga kelgan. Shundan so'ng korxonaga nisbatan Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudi tomonidan to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risida ish qo'zg'atilib, korxonani tugatish bo'yicha qaror qabul qilingan. Bag'dodda qurilgan uylar ham bu jarayonda auksionsonga chiqarilgan.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#), [Telegram](#), [Facebook](#), [YouTube](#), [Instagram](#)

2024-07-18 15:54:19